

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.12736015>

UDK: 311.4

PARRANDACHILIKNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI

Bobomuratov Imomqul Islamovich

Termiz davlat universiteti katta o'qituvchisi

imomkul1964@gmail.com

ANNOTATSIYA. *Maqolada parrandachilik xo'jaliklarining samaradorligi, uning mohiyati, parrandachilik xo'jaliklarida samaradorlikni oshirish omillari va uning tasnifi keltiriladidi*

Kalit so'zlar: *parrandachilik, parranda mahsuloti, samaradorlik, samara, mahsuldorlik, tannarx, foyda, moddiy rag'batlantirish, rentabellik, narx, omil, tashkiliy, iqtisodiy, resurs, manfaat.*

АННОТАЦИЯ. *В статье изложена эффективность птицефабрик, ее сущность, факторы повышения производительности труда на птицефабриках, ее классификация*

Ключевые слова: *птица, продукты птицеводства, эффективность, производительность, рентабельность, материальное стимулирование, рентабельность, цена, фактор, организационный, экономический, ресурс, выгода.*

KIRISH

Parrandachilik agrosanoat kompleksining fantalab va dinamik rivojlanib borayotgan quyi tarmog'i hisoblanadi. Hozirgi kunda ixtisoslashgan parrandachilik xo'jaliklarining tashkiliy iqtisodiy rivojlanishiga baho berish, parrandachilik tarmog'i samaradorlik ko'rsatkichlari tizimi va parrandachilik mahsulotlari bozori konyunkturasini aniqlash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mahalliy parrandachilik har doim muvaffaqiyatli rivojlanishda davom etmoqda. Bu holat parrandachilik rivojlanishini sanoat asosiga o'tkazish va kompleks

integratsiyalashgan tizimga ya'ni parrandachilikni parvarishlashdan uni tayyor mahsulot olishgacha bo'lgan bosqichlarni qamrab olishda namoyon bo'lmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasini parranda mahsulotlarini ishlab chiqarish va mahsuldorligini oshirish bo'yicha mamlakatimiz hamda xorijiy olimlarning olib borgan ilmiy ishlari natijalari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining parranda mahsulotlarini ishlab chiqarish va mahsuldorligini oshirishga oid farmon va qarorlari tashkil etadi. Shu bilan birga, rivojlangan xorijiy mamlakatlarda parranda mahsulotlarini ishlab chiqarish va mahsuldorligini oshirish modellarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, O'zbekistonda parrandachilikni yanada rivojlantirish va davlat tomonidan qo'llab quvvatlash chora tadbirlarini amaliyotga kiritishda muhim ahamiyatga egadir. Parrandachilikda samaradorlikni oshirishning tashkiliy, iqtisodiy va texnologik omillari o'rganiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Parrandachilikda samaradorlikni iqtisodiy statistik tahlil qilish bir qator xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, Ye. Darde tomonidan chorvachilikda samaradorlikni statistik tahlil qilish metodologiyasi ishlab chiqilgan bo'lib, unda vaqt qatorlarini tahlil qilish ko'rsatkichlari, vaqt qatorlarini analitik tekislash, vaqt modellarini tuzish va uni tahlil usullaridan keng foydalanilgan [6].

V.N. Afanasev, A.I. Markovalar parrandachilik samaradorlikni o'rganishda ularni ikki guruhga olib o'rganadi: parranda mahsulotlarini bevosita parvarishlash bilan bog'liq mahsulotlar (tuxum, parranda go'ngi) va parrandalarni so'yish orqali realizatsiyasi bilan bog'liq mahsulotlar (parranda go'shti, par, pat) ko'rsatkichlarni aniqlaydi [4].

L. Gulyayev tomonidan parrandachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning hozirgi holati va rivojlanish tendensiyalarini dinamik, monografik va taqqoslama tahlil usullaridan foydalangan [5]. Muallif parrandachilik sohasida mahsulotlarni yetishtirishdan tortib uni realizatsiya qilishgacha bo'lgan jarayonlarni qamrab oluvchi

klaster tizimidan keng foydalanish hamda parrandachilik mahsulotlarini chuqur qayta ishlash bu tarmoqni rivojlantirishning zaruriy omili sifatida qaraydi.


Mahalliy olimlaridan X.R.Raxmankulov Surxondaryo viloyatida chorvachilik mahsulotlari tannarxini kamaytirish va xo'jaliklar rentabellik darajasini oshirish masalalarini o'rganishda tipologik va analitik guruxlash, dinamik, taqqoslama va monografik tahlil usullaridan foydalanilgan. [8].

A.Xasanov chorvachilik samaradorlikni tahlil qilishda vaqt qatorlarini tahlil qilish ko'rsatkichlari, vaqt modellarini tuzish, mavsumiylik va tasodifiy omillarini ta'sirini aniqlash, o'rtacha taqqoslash hamda korrelyasion regression usullardan keng foydalanilgan [10].

TAHLIL VA NATIJALAR

Parrandachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni dinamik rivojlanishi va optimal faoliyat qilishida hamda uning samaradorligini oshirishda ko'plab omillar ta'sir qiladi va ularni uchta asosiy guruhlariga ajratish mumkin (1-rasm)

- Texnik va texnologik
- Tashkiliy iqtisodiy
- Resurslar (moliyaviy)



1-rasm Parrandachilik iqtisodiy samaradorligini oshirish omillari

Birinchi guruh omillariga quyidagilar kiradi: ishlab chiqarishning texnik vositalari (ishlab chiqarish maydonlarining mavjudligi va moslanuvchanligi; asbob uskunalar tizimining yoshi; mavjud mashina va mexanizmlar va ularning holati; parrandalarni parvarishlash texnologiyasi; mahsulotlarni yig'ish texnologiyasi; mahsulotlarni transportirovka qilish va qayta ishlash texnologiyasi).

Tashkiliy iqtisodiy omilarga quyidagilar kiradi: davlat tamonidan tartibga solinishi va qo'llab quvvatlanishi, xodimlar mehnatini tashkil etish, texnologik jarayonlarni boshqarish, moddiy rag'batlantirish va qo'llab quvvatlash, xo'jalikning mol yetkazib beruvchilar va iste'molchilar bilan halqaro iqtisodiy munosabatlari va ishlab chiqarish bo'yicha kooperatsiya.

Uchinchi omillar guruhiga moliyaviy, ishlab chiqarish va inson resurslari kiradi.

Bundan tashqari parranda mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni faoliyat natijalariga bevosita va bilvosita omillarga ajratish mumkin.

Bevosita ta'sir etuvchi omillarga quyidagilar mansub: mehnatni moddiy rag'batlantirish, qat'iy mehnat intizomiga rioya qilish va ularni ratsional ishlab chiqish bo'yicha rag'batlantirish; eng samarali va texnologiyalar va ishlab chiqarish vositalariga quyilmalar; parrandachilik xo'jaliklarini intensivlashtirish; mahsulot sifatini va parrandachilik mahsulotlari ishlab chiqarish raqobatbardoshligini oshirish.

Kechiktirilgan (bilvosita) omillarga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

✓ resurslar, hajm va ratsionallik bo'yicha xo'jaliklarni tashkil etish; tovar ishlab chiqaruvchilar va tarkibiy tuzilmalar o'rtasidagi aloqalarni tashkil etish;

✓ bozorlarning marketing tadqiqoti, sotuv kanallarini ishlab chiqish, halqaro sertifikatlash va standartlarga muvofiq mahsulot sifatini takomillashtirish; intensiv va resurs tejovchi texnologiyalarga o'tish, mahsulot raqobatbardoshligini oshirish;

✓ ishlab chiqarish samaradorligini dinamik rivojlantirish uchun me'yoriy huquqiy asoslarni ishlab chiqish.

Hozirgi bosqichda asosiy vazifamiz xo'jalikni boshqarishning barcha darajalarida agrar sektor mahsulotlarining raqobatbardoshligini ta'minlash va uni yanada oshirish hisoblanadi.

Yuqorida qayd qilingan omillar bevosita va bilvosita mehnat samaradorligiga, mahsulot tannarxini kamaytirishga va shu orqali xo'jaliklar daromadlarining ko'payishiga va xodimlarning ish sharoiti, moddiy rag'batlantirishning oshishiga olib keladi.

Parrandachilikda xarajatlarni boshqarishning iqtisodiy mexanizmi samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishi sifatida ishlab chiqarishni intensivlashtirish, undagi bosh vazifa parranda mahsuldorligini oshirish va uning o'sish sur'atini tezlashtirishdan iborat.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakat parrandachiligini rivojlantirish va samaradorligini oshirish uchun quyidagi chora tadbirlarni amalga oshirish zarur:

Birinchidan parrandachilik xo'jaliklarining iqtisodiy holatini yaxshilash, buning uchun ularning daromadlarini oshirish, mahsulot tannarxini kamaytirish va mahsulotlarning sifatini yaxshilash talab etiladi. Bu esa korxonada parrandachilik faoliyatida ishlatilayotgan aktivlarning miqdorini oshirish va sifatini yaxshilashni talab etadi. Davlat parrandachilik xo'jaliklarini imtiyozli resurslar ta'minlashda qo'llab quvvatlashi zarur.

Ikkinchidan, parrandachilik xo'jaliklarining yem ozuqa ta'minotini oshirish zarur. Buning uchun esa ularga yem ozuqa yetishtirish uchun ekin maydonlarini ko'paytirish, yem ozuqalarni qayta ishlash texnologiyalarini yaxshilash, shu orqali yem ozuqalarni arzonlashtirishi mumkin. Bu esa parranda mahsulotlarining tannarxini kamaytiradi.

Uchinchidan parrandachilik xo'jaliklarida naschilik ishlarini takomillashtirish. Mavjud parranda zotlarini yaxshilash va yangi mahsuldor zotlarini yaratish zarur.

To'rtinchidan, parranda bosh sonlarining saqlab qolishni ta'minlash. Bu maqsadda parrandachilik xo'jaliklari samaradorligini oshirish uchun o'z vaqtida va to'liq veterinariya tadbirlarini amalga oshirish kerak bo'ladi. Parrandalarni zamonaviy dori darmon va vaktsinlar bilan ta'minlaganimizda ularning salomatligi yaxshilanadi va mahsuldorligi oshadi.

Beshinchidan, parandachilik xom ashyosini chuqur qayta ishlash, mahsulot assortimentini kengaytirish va ishlab chiqariladigan mahsulot sifatini oshirish, mavsumiy uzilishlarni kamaytirish.

Oltinchidan, marketingning zamonaviy usullari, reklama va xizmat ko'rsatishni o'zlashtirish. Parrandachilik xo'jaliklarining bir maromad ishlashi uchun mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha mol yetkazib beruvchilar iste'molchilar o'rtasida shartnomalar tuzish, bozorni to'liq o'rganish va narx siyosatini to'g'ri amalga oshirish zarur.

Yetinchidan, parrandachilik xo'jaliklarida ishlovchi xodimlarning ijtimoiy shart shartlarini yaxshilash. Xo'jalik daromadlari va samaradorligi oshishi bilan xo'jaliklarning ijtimoiy infratuzilmasi ham yaxshilanishi zarur.

Yuqorida qayd etilgan omillarni e'tiborga olinsa parrandachilik xo'jaliklarining samaradorligi oshadi, o'z navbatida aholiga sifatli parranda mahsulotlari bilan ta'minlanishi yaxshilandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Parrandachilikni yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4015-sonli Qarori. 2018 yil 13 noyabr <http://lex.uz>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni. 2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. <http://lex.uz>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-281-sonli Qarori, Parrandachilik sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. 2022 yil
4. Афанасьев В.Н., Маркова А.И. (2003), Статистика сельского хозяйства: Учебное пособие.- М: Финансы и статистика, 272 стр
5. Гуляева Л.В., Распутина А.В. (2007) Современные состояния и тенденции развития птицеводческих организаций Иркутской области. Известия ИГЭА №6 (56)

6. Дарде.Е.С. Статистический анализ и прогнозирование производства основных видов продукции животноводства(2011). Монография –М: ИНО, 109 с.
7. Нечаев В.И, Бершицкий Ю.И., Фетисов С.Д, Слепнева Т.Н. (2010) Современное состояние и тенденции развития птицеводства в России. Монография, Краснодар, 150 стр
8. Рахманкулов Х.Р.(1969) Резервы снижения себестоимости продукции и повышения рентабельности животноводства в колхозах Сурхандарьинской области. Автореферат диссертации по соискания ученой степени кандидата экономических наук. (22 стр) Ташкент
9. Xatamov O., Bobomuratov I.(2019) Parrandachilikni rivojlantirishning hududiy iqtisodiy statistik tahlili. Agroiqtisodiyot.ilmiy amaliy agroiqtisodiy jo‘rnal. 4(14) 64-66 b
- 10.Xasanov A.A.(2019) Chorvachilik mahsulotlari asosiy turlarini ishlab chiqarishning statistik tadqiqoti (Surxondaryo viloyati misolida) (b) Toshkent
- 11.Бобомуратов, И. (2021). ДАВЛАТ ТОМОНИДАН ҚЎЛЛАБ ҚУВВАТЛАШ-ПАРРАНДАЧИЛИК САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ ОМИЛИ СИФАТИДА. *Iqtisodiyot va ta'lim*, (5), 42-48.
- 12.Norqo‘chqor qizi Abdunazarova, S., & qizi Qulatova, M. M. (2024). MARKETING: MARKETING FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI. Results of National Scientific Research International Journal, 3(1), 183-193.
- 13.Bobomuratov, I. I. (2023). SURXONDARYO VILOYATIDA TUXUM ETISHTIRISHNING IQTISODIY STATISTIK TAHLILI. *GOLDEN BRAIN*, 1(18), 38-45.
- 14.Bobomuratov, I. I. (2023). SURXONDARYO VILOYATIDA PARRANDA GO‘SHTI YETISHTIRISHNING IQTISODIY STATISTIK TAHLILI. *SCHOLAR*, 1(18), 35-41.
- 15.Bobomuratov, I. (2024). Surxondaryo viloyatida parrandachilikni rivojlantirish ko‘rsatkichlarini prognozlash va modellashtirish.